

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston davlat jismoniy
tarbiya va sport universiteti
rektori M. R. Boltabayev**



**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba-yoshlarining
ota-onalari o‘rtasida “Prezident saylovining oilam kelajagiga ta’siri”
videorolik tanlovi
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1.1. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabalarning ota-onalari o‘rtasida “Prezident saylovining oilam kelajagiga ta’siri videorolik tanlovi” (keyingi o‘rinlarda Tanlov deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘yicha saylovoldi harakatlar doirasida tashkil etiladi.

1.2. “Prezident saylovining oilam kelajagiga ta’siri” mavzusidagi videoroliklar tanlovi 2021-yil – oktyabr oyida o‘tkaziladi.

1.3. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi tomonidan o‘tkaziladi.

II. Tanlovdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar

2. Tanlovni tashkil etishdan asosiy maqsad – jamiyatda O‘zbekiston Respublikasi yoshlarning ota-onalarini bilan birgalikda ishtirokini ta’minlashni kengaytirish hamda ularning siyosiy madaniyatini oshirish, yoshlarning ota-onalarini saylov institutlariga ishonchini mustahkamlash hamda, talaba yoshlarning ota-onalarini jamiyatimizdagi barcha siyosiy jarayonlarda faol yetakchiligini ta’minlashdan iborat.

2.1. Tanlovning vazifalari - saylovga barcha talabalarni oila a’zoarini ishtirokini kengaytirish;

2.2. Saylov-mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim siyosiy jarayonlardan biri ekanligini tushintirish;

2.3. Har bir saylovchining ovozi zahirida mamlakatning ertasi, avlodlar kelajagi va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy huquqlari mujassam ekanligini ta’kidlash;

2.4. Oilalarda hali saylov yoshiga yetmagan o‘g‘il-qizlarni ham saylov jarayonlari to‘g‘risida tushunchani shakllantirish.

III. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish

3. Tanlovni o'tkazish bo'yicha oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan Tashkiliy qo'mita va soha professor-o'qituvchilari, olimlari, mutaxassislari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda Hakamlar xay'ati tuziladi.

3.1. Talabalarning ota-onalari tomonidan tayyorlangan videoroliklar fakultetlar kesimida tuzilgan hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi.

3.2. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish Tashkiliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi. Tanlovning yakuniy bosqichi g'oliblarini aniqlash bo'yicha Hakamlar xay'ati tuziladi va tanlov g'oliblari Tashkiliy qo'mitaning yig'ilish bayoni orqali tasdiqlanadi. Xay'at tarkibiga soha bo'yicha yetuk mutaxassislar jalb etiladi.

3.3. Mazkur tanlov e'lon qilingan kundan boshlab va tanlovning yakuni bo'yicha videoroliklar qabul qilish sanasi universitet rasmiy kanalida e'lon qilinadi.

IV. Tanlov shartlari va baxolash mezonlari

4. "Prezident saylovining oilam kelajagiga ta'siri" videorolik tanlovi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Saylov jarayonlari haqida tushunchalar berish;

Videoroliklar sifati yuqori bo'lishi;

Saylov qonunchiligining o'ziga hos xususiyatlari va mazmun mohiyatini tushuntirishga qarab videorolikni baholashda uning saylovga oid ekanligiga qarab baholanadi.

mazkur videoroliklar uchun 10 ballgacha baho beriladi.

5. Bu shart orqali talabanning oila a'zolari saylovga qanday tayyorgarlik ko'rganligini tekshirish maqsadida tashkil etiladi.

V. G'oliblarni taqdirlash

6. Tanlov yakunida hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra g'olib bo'lgan talabalar universitet rektori tomonidan Diplom va 1-o'rin uchun telefon; 2-o'rin uchun sport inventari hamda 3-o'rin uchun badiiy kitoblar bilan taqdirlanadi.